



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№3

TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-МЕТОДИК
ЖУРНАЛ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODICAL
JOURNAL

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



**№3/2024
MART**

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lif MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti
rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining
2021 yil 30 sentyabrdagi
306/6-son Qarori bilan
PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning, dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

10.04.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t 12,5.

Buyurtma raqami №0325
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida
chop etildi. Buxoro shahar
<https://interscience.uz/> saytidan
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305
raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari
davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi
va 2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan
boshlab har oyda 1 marta
o'zbek, rus va ingлиз tillarida
chop etiladi

«Ta'lif va innovatsion
tadqiqotlari» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatning roziligi
bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan
faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoiljonova M. U., Mo'minov H. M. Yangi O'zbekistonda sud tizimi va bu sohada islohatlarning o'ziga xos jihatlari	3
Mo'minov H. M., Qodirjonov O.T. O'zbekiston va Xitoy: hamkorlik aloqalarining yangi bosqichi (2017 – 2023-yillar)	7
Olimjonov D.Z. "Boburnoma" asarida harb ishi bilan bog'liq etnografik ma'lumotlar	12

Saydqulova S.I. Mustaqillik yillarda O'zbekiston va Saudiya Arabiston o'rta sidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining rivojlanishi	17
Sobirov T.R. Orta Asya'da tasirim tarihinin gelishimine ebu'l vefa el-bûzcânî'nin etkisi	21

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Artikova Z. Z. Xitoy tilida insho yozish algoritmi	35
Baratova K. X. Category of phraseological unit	38
Bazarbaeva A. Analysis of colour terms in the context of cognitive-discursive approach	45
Buronova X. T. O'zbek tili tibbiy terminlarining genetik xususiyatlari	48
Eshonqulov R. T. English language semantic shift: social media neologisms	51
Haydarov A. A., Sattorova Sh. Tinish belgilarida ifodalangan fonografik uslubiy vositalar	56
Kadirova N. A., Saidova Z. S. Fransuz va o'zbek tillarida fe'l so'z turkumini o'rgangan olimlar	59
Mirqodirova Z. Sh. Til o'rganishda tanqidiy fikrlashning ahamiyati	63
Otaxonova H. A. Methods of research of media texts	68
Qayumova N. M. Shekspir va Rauf Parfi sonetlarida portret	73
Qodirova G. Folklor matnlarining lingvostatistikasi tadqiqotlari tahlili	77
Примкулова С. Б. Словарный состав, и его изменчивость	81
Sanoyeva G. R. Sodda gap sintaksisning asosiy birligi sifatida	87
Saydamatov I. The different peculiarities of phraseological units with somatic components in modern linguistics	91
Темирова Ш. Г., Хаджикурбанова Г. А., Юлдашева С. Т. Фразеологизмы в разных языках: сходства и различия	95
Turakulova Kh. S. Development and practice of language learning and teaching methods in Uzbekistan	101

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Abdrimov I. A. Zamonaviy pedagogik va psixologik adabiyotlarda kreativ fikrlash tushunchasining tahlili	106
Abdullaeva F. N. Coursera ommaviy onlayn ochiq kurslar orqali talabalarning mustaqil ta'lif olish jarayonini tashkillashtirish	111
Asiljonova Sh. D. Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini ingliz tilida produktiv faollashtirish	117



SHEKSPIR VA RAUF PARFI SONETLARIDA PORTRET

Qayumova Nigora Muxtor kizi,

Fakultetlararo chet tillar kaedrasi katta o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.015>

Annotatsiya: Portret badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lib, nasrda keng qo'llanadi. Nasriy asar sujetida alohida o'rinn tutadi. Ammo she'riy asarda ham uchraydi, faqat she'rda portret turli satrlarda beriladi. Ayni damda, she'riy asarda ko'proq statik portret kam uchragan holda asosan dinamik portret qo'llanadi. Maqoda shu masala Shekspir va Rauf Parfi sonetlari ko'magida yoritilgan.

Kalit so'zlar: portret, statik portret, dinamik portret, badiiy tasvir vositasi, nasr, she'r, sonet, sonetnavis, personaj, peyzaj, shoir, lirik qahramon.

ПОРТРЕТ В СОНЕТАХ ШЕКСПИРА И РАУФА ПАРФИ

Каюмова Нигора Мухтар кизи,

Старший преподаватель Межфакультетской кафедры иностранных языков

Бухарский государственный университет

Аннотация: Портрет является одним из средств художественного изображения и широко используется в прозе. Особое место в теме произведения занимает проза. Но оно встречается и в поэзии, только в поэзии портрет дан в разных строках. На данный момент в поэзии чаще всего используется динамический портрет, более статичный портрет встречается реже. Этот вопрос рассматривается в статье с помощью сонетов Шекспира и Рауфа Парфи.

Ключевые слова: портрет, статический портрет, динамический портрет, художественный образный инструмент, проза, стихотворение, сонет, автор сонета, персонаж, пейзаж, поэт, лирический герой.

A PORTRAIT IN THE SONNETS OF SHAKESPEARE AND RAUF PARFI

Qayumova Nigora Muxtor kizi,

Senior teacher of the Department of Interfaculty of foreign languages

Bukhara State University

Abstract: Portrait is one of the means of artistic representation and is widely used in prose. Prose takes a special place in the subject of the work. But it is also found in poetry, only in poetry the portrait is given in different lines. At the moment, dynamic portraiture is mostly used in poetry, with more static portraiture being less common. This issue is covered in the article with the help of Shakespeare and Rauf Parfi's sonnets.

Key words: portrait, static portrait, dynamic portrait, artistic image tool, prose, poem, sonnet, sonnet writer, character, landscape, poet, lyrical hero.

Kirish. Ingliz shoiri Shekspir va o'zbek shoiri Rauf Parfi sonetlarini turli jihatlariga ko'ra chog'ishtirish mumkin. Ikki shoirning portret yaratish mahoratini qiyoslash ham sonet poetikasi taddiqi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, portret badiiy adabiyot yaralganidan buyon keng qo'llanib kelinadigan badiiy tasvir vositasidir. Badiiy asarlarda portret qahramonning kimligini yaxshiroq tushuntirish, uni o'quvchining tasavvurida gavdalantirish uchun kerak. Portretning yuzaga kelishi asar janriga hamda ijodkorning ijod qilish uslubiga bevosita bog'liq bo'ladi. U orqali adib o'quvchilar uchun eng muhim deb hisoblagan jihatlarni ochib beradi.

"Portret – personajning so'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuzko'z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o'quvchi tasavvurida jonlanadigan to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo'lmish tavsifning bir ko'rinishidir" [2.226.]. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da portret shartli tarzda ikkiga bo'linishi aytildi: a) statik portret; b) dinamik portret. Olimlarning fikricha, personajning tashki qiyofasi sujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chizilsa, statik portret yuzaga keladi. Dinamik portretda esa mufassal tasvir berilmay, qahramonning tashqi ko'rinishiga xos ayrim

detallar keltiriladi. Masalaning bir jihatiga e'tibor qaratsak: lug'atda portret nasrga xos badiiy tasvir vositasi sifatida ta'riflangan. Bu o'rinni. Bizningcha, bu badiiy tasvir vositasi nasriy asarda to'laqonli qo'llangan holda, liro-epik asarlarda ham uchraydi. Aytish lozimki, lirk asarlarda ham portret uchraydi, ammo nasriy portretidan farqlanadi. Lirk asarlarda, asosan, dinamik portret uchraydi, portret uchun zarur tasvirlar turli satrlarda bo'lishi mumkin.

Qirq qahraton qishning ayoz shamoli
Iz salsa manglaying, yuzlaringga, hay
Qayda qolgay sening oydek jamoling
Tengsiz latofating qaylarda qolgay? [1.235.]

Metodlar. Shekspir do'stiga bag'ishlangan sonetida "manglay, yuz, soch, yonoq, ko'zlar" so'zlarini orqali do'stining hali navqiron yoshda ekanligiga ishora qiladi. U yaratgan portret sonetda sochilgan tarzda kelgan, ya'ni shoir do'stining qiyofasiga xos xususiyatlarni bir joyda bermaydi. Sonetda do'stining yoshlikdagi va yillar o'tgandan keyingi qiyofasiga xosliklar keltirilib qiyoslanadi. Sonetdagagi satrlardan foydalanim, do'stining portretiga xos ma'lum jihatlarni keltirish lozim: yoshligida sochi to'lqinli, yonog'i yolqinli dostoning jamoli oydek bo'lgan. Vaqt o'tgach, do'stining sochi to'lqinli bo'lmay qolgan, yolqinli yonog'i soyali, ya'ni keksargan, ko'zlar so'niq. Shoir "qirq qahraton qish" birikmasi orqali qahramonning yoshini aytar ekan, do'stining umridagi tadrijni ko'rsatadi.

Va lekin javobing bo'lar munosib,
Gar desang, boqingiz bolalarimga.
Ko'rk-u tarovatkim, etmishdi nasib,
Baxsh etdim gullarim, lolalarimga [1.235].

Shoir do'stida ko'rgan barcha ko'rk-u tarovat uning bolalariga ko'chganini ta'kidlaydi. Sonetda do'sti misolida shoir inson umri o'tkinchi ekanini, ayni damda, davomiyligini tazod yo'rdamida yorqin ifoda etadi. Dinamik portret inson umri mohiyatini anglatishda qo'l kelgan.

Uningdo'stiga bag'ishlangan yana bir sonetida do'stining kelishgan yigitligi tasvir etilgan. Shoir zamonga murojaat qilar ekan, xohlasang "sherning tirnog'ini sindir", "yo'lbarsning tishini qoqib ol", "qaqnusni o'tda yoq", "ammo bir gunohdan tiyil" der ekan, o'tinadi:

Manglayiga ajin solma do'stuning,
Munis chehrasini abgor aylama.
Ko'rkam qiyofasi, jamoli uning
Barcha zamonalarga bo'lsin namuna [1.252].

Shoir do'stining chehrasi munis, qiyofasi ko'rkam ekanini she'rxoniga anglatar ekan, olqish orqali do'stiga ezgulik istagan mehribon do'st sifatida gavdalanadi.

Shekspir sonetlarida ko'proq do'st, mahbuba qiyofasi dinamik portret orqali namoyon qilinadi. O'zining 130-sonetida mahbubasining portertini keltiradi. Ammo Shekspir ushbu sonetda ma'shuqasini o'zga shoirlar o'z yorini maqtab tasvirlaganidek aks ettirmaydi. Sevgilisi ilohalardek go'zal bo'lmasa ham shoir uni shu holida sevishini ta'kidlamoqda.

Sevgilim ko'zları yulduz emasdır,
Qırmızı lablari ham yoqutmas aslo.
Siynasi ham qordek oq emas, harir,
Sochlari sunbulmas, mayin, timqaro.

Damashqning oq, qizil atirgullarin.
Uning yanog'iga etmasman qiyos.
Dunyoning muattar mushk-u anbarin,
Demasman, yorimdan taralgay, xolos [1.363].

Natijalar. Shoir go'zallarga beriladigan odatiy ta'riflarni keltirar ekan, o'zga shoirlar tasvirlaydigan go'zallar portretini yuzaga keltiradi va uning yorida bunday go'zallik yo'qligini aytadi. Shoir "Ammo uning o'sha maqtovga loyiq Hur-u parilardan kamlik yeri yo'q" deb sonetni yakunlar ekan, muhabbatining qudratini ko'rsatib bera olgan. Shekspir dinamik portretni hosil qilar ekan, lirk qahramonining ichki qiyofasini ham anglata oladi. "Portret qahramonning tashqi jihatlari haqidagina emas, uning ichki, ma'naviy qiyofasi, fe'l-atvori haqida ham ma'lum tasavvur beradi. Hayotda, ko'pincha, kishining qiyofa, ko'rinishi uning fe'l-atvorini bildirib turgani singari, badiiy asar qahramonlari portretlari ham ularning

ichki qiyofasiga moslab tasvirlanadi”[4.62.].

Ingliz xalqining betakror sonetnavisi singari yetuk shoirimiz Rauf Parfi ham o‘z sonetlarida dinamik portertdan foydalandi. “Buyuk jinoyatchi, buyuk qahramon” misrasi bilan boshlanuvchi soneti Hamletning o‘limiga bag‘ishlangan:

Yumilgan ko‘zlarda beshumor ochun,
Ko‘kargan lablarda aytmagan so‘zi,
Sen-da ketarsanmi, o, Hamlet nechun?

Kimlarga ishonib ketarsan, do‘stim.

Nahot yetar senga Yovuzlik kuchi?!

Yo‘q, seni o‘ldirdi shoirning o‘zi...[3.9]

Hamletning o‘lim onlari “yumilgan ko‘zlar”, “ko‘kargan lablar” orqali tasvirlab berilmoxda. Demak, portret faqat lirik qahramon qiyofasinigina emas, uning taqdirini ifodalashda ham zarur bo‘lar ekan.

Rauf Parfi sonetlarida yor tasviridan tashqari avtoportret va Vatan portreti uchraydi. Bu jihatdan Shekspirdan farqlanadi:

Shamol, sochlarni tarama,
Oqarsa oqarsin azobdan.
Qismat, hayron bo‘lib qarama,
Axir ayirmading qahr-u g‘azabdan[3.17].

Ta‘kidlaganimizdek, sonetda lirik qahramon portreti to‘liq berilmay, ma’lum bir jihatlari, ya’ni lirik qahramon qiyofasiga xos ba’zi xususiyatlar yoritiladi, xolos. Yana bir xarakterli tomoni, portretga xos jihatlar turli misralarda sochilgan holda uchraydi. Ularni yig‘sangiz, dinamik portret hosil bo‘ladi. Lirik qahramonning azobdan oqarishga mahkum sochlari, pichoqlar yetgan bo‘g‘zi, “Turkiy Dunyoning bahori”ga baxsh etilgan boshi. 1976-yilda yozilgan bu sonetda shoir dinamik portret orqali Vatan ozodligi yo‘lida jonidan kechishga tayyorligini o‘ziga xos tarzda ifoda eta olgan. “Soch, bo‘g‘iz, bosh” detallari lirik qahramon qiyofasini to‘liq ifoda eta olmaydi. Ammo shoirning maqsadini anglatishda dinamik portret ham alohida o‘rin tuta bilgan.

Sonetlardan birida dinamik portret faqat ko‘zdan iborat:

Nechun yana ko‘zim, kulmaysan nechun,
Nechun, sen yozmaysan injan qanoting.
Yana tortmakdami o‘shal mudhish tun,
Ufqda o‘chdimi, ey Quyosh, oting [3.21].

14 misra ikki to‘rtlik, ikki uchlik tarzida tartiblashtirilgan. Rauf Parfi she’rda ko‘zni portretga xos jihat sifatida keltirar ekan, uch ko‘z haqida fikr yuritadi: muallif ko‘zi, Quyosh ko‘zi, yor ko‘zi. Shoir o‘z ko‘ziga murojaat qilar ekan, “kulmaysan nechun” deb murojaat qiladi. Quyoshga so‘zlar ekan, “Nechun, sen yozmaysan injan qanoting” deydi va “ko‘zlarining och” deb undaydi. Quyoshning ko‘z ochishidan nash‘a sochilishi kerak. Shoir “Borliq Oq erklik ichradir” deb hisoblaydi. “Shodlik. Nur toshqini. Bir chaman. Bir bog“ bo‘lishi sevgilisining ko‘ziga bog‘liq. Sevgilisining ko‘zi osmonli, undan yulduzlar uchgan”. Shoir sevgilisining ko‘zi haqida xulosaviy fikr aytadi: “Mangulik osmoni – bu teran ko‘zlar”. Biz faqat bir ko‘zdan iborat deb bilganimiz dinamik portret osmon kengligi qadar kengayadi. Shoir portret orqali boqiy muhabbatni ifodalay olgan.

To‘lg‘ongan sochlaring qora ilondir,
Vujudimga tashlar anglanmas qo‘rquv,
Ochilgan bag‘rimning dardi nolondir –
Sening ko‘zlarining teran, qorong‘u[3.25.].

Rauf Parfi dinamik portret yaratish jarayonida tashbehdan foydalanadi. Portret va peyzaj tashbeh ko‘magida hosil qilinar ekan, shoirning fikrlarini anglatadi. Portret va peyzaj bir-biriga shu qadar bog‘likki, ajratib tahlil qilib bo‘lmaydi. Shoir yor sochlari qora va uzun bo‘lganligi uchun uni ilonga o‘xshatadi. Bu sochlarni shamol o‘ynaydi, shamolda jon uzilgan barg kabi qaltiraydi. Rauf Parfi bir vaqtning o‘zida ham portret va peyzaj yaratib boradi. Lirik qahramonning sevgani “ko‘zlariga berkingan jahon” bilan uning ezilgan yuragini ezib to‘ymaydi. She’r misralaridan so‘z yoki so‘z birikmalarini olib, peyzajni tartib bersak: qora ilon, o‘ynoqi shamol, uzilgan barg, qop-qora tani g‘imirlayotgan kecha, daryo. She’rxon ko‘z o‘ngida manzara namoyon bo‘ladi. Dinamik portretga diqqat qiling: “To‘lg‘ongan sochlari”, “vujud”,

“ochilgan bag‘ir”, teran, qorong‘u ko‘zlar, qaltirayotgan jon, ezilgan yurak, ko‘zlarga berkingan jahon, yonayotgan tan, boqayotgan ko‘zlar, uzayib, jimirlab, suvga aylanib lim to‘lib oqayotgan jasad. Shoир mahorat bilan portret va peyzajni bir-biriga bog‘laydi, aniqrog‘i biridan ikkinchisini paydo qiladi. Sonetni o‘qiganda buni xos she’rxon anglay oladi, ammo mahoratli shoир ifodasi barcha she’rxonga birday anglashilmaydi.

Xulosa. Ko‘rinadiki, ikki davrning, ikki xalqning yetuk sonetnavislari o‘z g‘oyalarini ifodalashda portretdan unumli foydalanishgan. Faqat portret nasrdagi kabi ketma-ket jumlalarda emas, turli misralarda sochilgan tarzda beriladi. Ikki shoир sonetlari misolida aytish mumkinki, ular dinamik portretdan ko‘proq foydalanishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamol Kamol. Saylanma. Shayxurrais. Yettinchi jild. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2022. – B.416.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.408.
3. Rauf Parfi O‘zturk. Tavba: She’rlar – Toshkent: Yozuvchi, 2000. – B.34. www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2018. – B.62.
5. Qayumova, Nigora. «DUNYO SONETCHILIGIGA NAZAR.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 41.41 (2023).
6. Qayumova, Nigora. «The Genre Sonnet in the Poesis of Shakespeare.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).
7. Qayumova, Nigora. «Formal and Contentual Coherence in the Sonnets of Rauf Parfi and Shakespeare.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 33.33 (2023).
8. kizi BURIYEVA, Qayumova Nigora Muxtor. «INGLIZ SHOIRLARI TALQINIDA SONET JANRI.» Ustozlar uchun 43.3 (2023): 102-106.
9. Qayumova, Nigora. «The harmony of form and content in the sonnet.» Центр научных публикаций (buxdu. Uz) 40.40 (2023).
10. Qayumova, N. (2023). ШЕКСПИР ВА РАУФ ПАРФИ СОНЕТЛАРИДА БАДИЙ ТАСВИР ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИШИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 30(30). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9194
11. Qayumova, N. (2023). IDEOLOGY AND ART OF WILLIAM SHAKESPEARE’S SONNETS. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(8), 94–97. извлечено от <http://econferences.ru/index.php/tafps/article/view/5514>
12. Qayumova, N. (2023). DUNYO SONETCHILIGIGA NAZAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 41(41).